

ESSE JANRINING TA'SIRCHANLIGI VA JURNALISTNING SO'ZDAN FOYDALANISH MAHORATI

Raximova Mohinabonu
Lingvistika (O'zbek tili) II bosqich magistranti

Maqolada esse janri, uning ta'sirchanligi va jurnalistning o'zbek tilida so'zdan foydalanish mahorati haqida fikr yuritilib, soha bo'yicha mutaxassislar tajribalari keltirib o'tilgan.

O'zbek tilining hozirgi davrdagi ijtimoiy mohiyatini baholash, uslublardagi janrlarni o'zaro bog'liq va alohida-alohida tadqiq etishda gazeta tilining o'rni beqiyos. Chunki gazetada o'zbek tili taraqqiyotidagi o'zgarishlar davr talabi bilan aks etib boradi, davlat tilining imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis Senati va qonunchilik palatasi qo'shma majlisida so'zlagan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi" mavzuidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi. Bugungi kunda OAVning umumiy soni 1200 taga yetdi¹. O'zbekistonda OAV faoliyati tubdan isloh qilinib, shubhasiz, katta yutuqlarga erishildi. Jurnalistlarning tildan foydalanish mahoratini baholash va OAVning samaradorligini oshirish gazeta janrlarining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish, uslublararo bog'liqlik va alohidalikni ko'rsata bilish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda janrlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish bilan birga, OAVda faqat 5-6 ta janrda ijod qilish, janrlar imkoniyatlarini to'la hisobga olmaslik sohasida ayrim kamchiliklar yuz bermoqda.

O'zbek tilshunosligida publististik uslub, gazeta tili va uslubini o'rganish sohasida ma'lum tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jahon tilshunosligi, xususan, rus tilshunosligida birgina gazeta tilini o'rganish sohasida 300dan ortiq tadqiqot yaratilgani kabi, o'zbek tilshunos olimlari G'.Abduraxmonov, E.Begmatov, S.Boboyeva, K.Yusupov, S.Muhammedov, A.Shomaqsudov, A.Mamatov, T.Qurbonov, I.Toshaliyev, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, A.Abdusaidov

¹ Karimov I. Mamlakatimizda demokratik isloqotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Oliy Majlis Senati va qonunchilik palatasi qo'shma majlisida so'zlagan nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2010 yil 14 noyabr'.

kabilarning qator tadqiqotlarida publististik uslub, gazeta tilining lingvostilistik xususiyatlari, gazeta tili va adabiy norma, gazeta janrlarining tili va uslubi masalalari tadqiq etilgan.

Keyingi yillarda N.Abdusazizova, H.Akbarov, X.Do'stmuhammedov, S.Jabborov, N.Jo'rayev, Q.Irnazarov, M.Xudoyqulov, F.Mo'minov, P.Mo'minova, H.Saidov, O.Toshboyev, O.O'sarov kabi olimlarning milliy jurnalistika tarixi va rivojlanish bosqichlari, matbuot nazariyasi, janrlari, jurnalistik faoliyatning ijtimoiy va axloqiy masalalari o'rganilgan salmoqli ilmiy tadqiqotlari yaratildi.

Mavjud tadqiqotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilshunosligida gazeta tilini o'rganish sohasida tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, gazeta tili yoki janrlar rang-barangligi kabi masalalar tadqiq etilganicha yo'q. Gazeta janrlarining lingvostilistik, lingvostatistik aspektida alohida-alohida va kompleks o'rganish sohasida, xususan, janr xususiyatlarini tadqiq etish borasida biror bir maxsus monografik asar yaratilgan emas.

Gazetalarda nashr etilayotgan gazeta janrlariga oid barcha materiallar, ayrim badiiy-publististik janrlarga doir maqolalarning tili va uslubini tahlil qilish, janrlar imkoniyatlaridan foydalanishda jurnalistlarning mahoratini yoritish, adabiy me'yorga rioya etish holatini baholash, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar bayon qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Gazetalarda janr va til mahorati masalalarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini yoritish, gazeta axborot, tahliliy va badiiy-publististik janrlarining leksik-stilistik, grammatik-stilistik xususiyatlari, janr va tildan foydalanish mahorati, adabiy normaga rioya etish holatlarini aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilishni amalga oshirish lozim.

Gazeta tili va uslubini o'rganish, badiiy-publististik va boshqa janrlarning til xususiyatlarini tahlil qilish borasida hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Xususan, badiiy-publististik janrlar sirasiga kiruvchi "Esse janri" bo'yicha ham tadqiqotlar olib borish, bu janrning til xususiyatlarini tahlil qilish borasida maxsus tadqiqotlar amalga oshirilganicha yo'q. Biroq ushbu janr M.Xudoyqulovning "Jurnalistika va publististika" (Toshkent, "Universitet" 2008) nomli kitobida jurnalistik nuqtai nazardan atroflicha yoritilgan. Bundan tashqari prof.A.Abdusaidovning qator ilmiy tadqiqot ishlari aynan gazeta tili va uslubi, publististik janr xususiyatlariga bag'ishlanganligi ham e'tiborga molikdir. Xususan, prof.A.Abdusaidov 1989-yilda "Gazeta tili va uslubi" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini, 2005-yilda esa "Gazeta janrlarining til xususiyatlari" mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan va qator o'quv qo'llanmalar, monografiyalar yaratgan.

Esse adabiy janr sifatida adabiyotshunoslikning ham ilmiy obyekti hisoblanadi. Hozirda jurnalistika sohasida ocherk bo'yicha O'zMUdan N.To'xtamatova, O'zDJTUdan F.Rasulovlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. O'zRFAning Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti sobiq aspiranti Marxabo Qo'chqorova 2004-yilda "Hozirgi o'zbek adabiyotida esse janri" mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan. Shunga karamay badiiy- publitsistik janrlari ichida o'ziga xos o'rin tutadigan esse janri haqida ma'lumotlar juda kam. Faqat badiiy publitsistika bo'yicha nazariy bilimlardan, qolaversa, matbuotda onda-sonda ko'zga tashlanib qoladigan esse va essenamo maqolalar imkon darajasida jurnalistika taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Bundan tashqari keyingi yillarda ya'ni 2012-yilda O'zbekiston Milliy Universiteti, Jurnalistika fakulteti magistranti Qo'shshaeva Iqbol Abdurazzoqovna "Adabiy - badiiy nashrlarda esse janri taraqqiyoti" nomli magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ushbu ishda ham mavzu jurnalistik nuqtai nazardan tadqiq qilingan.

Demak, bundan ko'rinib turibdiki, esse janri lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinganicha yo'q. Shuning uchun biz magistrlik dissertatsiyamizni "Esse janrining lingvostilistik tadqiqi" deb nomladik va boradi yechilishi lozim bo'lgan ayrim muammolarni tahlil qilishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

"Esse janrining lingvostilistik tadqiqi" mavzusi bo'yicha quyidagilar asosida ilmiy tahlilni amalga oshirish orqali oldimizga qo'yilgan va yechilishi lozim bo'lgan masalani hal qilishga harakat qilamiz:

- Publististik uslubni nazariy-metodologik tahlili;
- Esse janrining lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish tamoyillarini belgilash;
- Esse sarlavhalarini lingvistik tadqiqini amalga oshirish;
- Esse janrining leksik-stilistik, frazeologik-stilistik, grammatik-stilistik tahlilini amalga oshirish;
- Esse janrining lingvostilistik tahlili;
- Jurnalist mahoratini o'rganishda janr va tildan foydalanish muammolarini tadqiq etishning ahamiyati.

Jamiyatimizda "To'rtinchi hokimiyat" nomini olgan jurnalistlar va OAVning huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurishdagi xizmatlari nihoyatda katta. Gazeta janrlarining, xususan, esse janrining lingvistik xususiyatlari janr va tildan foydalanish aspektida tadqiqotlarni amalga oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Badiiy-publitsistik janrlar sirasiga kiruvchi esse o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Esse" atamasi turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Xususan,

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Esse (fransuzcha *essai* – tajriba, mashq, xomaki narsa) adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik va boshqa mavzularda yozilgan, muammolar sistematik ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadigan nasriy asar”²deya ta’rif berilgan bo‘lsa, “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da “Esse –lot.exigo –chamalayman, o‘lchab ko‘raman so‘zlaridan olingan, erkin kompozitsiyaga ega bo‘lgan, juz‘iy mavzularda, shaxsiy mulohaza va qarashlarni ifodalovchi unchalik katta hajmga ega bo‘lmagan asar...”³ deb ta’riflanadi.

Esse o‘zbek adabiyoti XX asrning 70-80-yillarida yaratila boshlagan bo‘lsa-da, u janr sifatida dastlab farang faylasufi Mishel Montenning “Esse” (“Tadqiqotlar”) asarida qo‘llangan. Montenning bizgacha yetib kelgan ushbu asari uch kitobdan iborat bo‘lib, u 1580-1588-yillarda yaratilgan. “Esse” – lotincha so‘z bo‘lib, “o‘z ustida tajriba o‘tkazish” degan ma’noni anglatadi. Bunda Monten “Esse” haqida shunday yozadi: “Kitobimning mundariyasi – men o‘zimman”.

“Esse – (fransuzcha *essai* – urinish, sinash, ocherk) – erkin kompozitsiyali, uncha katta bo‘lmagan nasriy asar. Esse orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi.”⁴

Esse janriga berilgan ta’riflardan ham ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda o‘zbek esse janri o‘rganilishi lozim bo‘lgan ilmiy muammolardan biri sanaladi.

Esse janrida ekspressivlikning ifodalanishida eng muhim vositalardan biri bu frazeologizmlar hisoblanadi. Avvalo, ekspressivlik so‘zining ma’nosini bilib olish lozim.

Ekspress – inglizcha *express* < *nom.* *expres-sus*-kuchaytirilgan, ifodali, tasviriy (O‘zbek tilining izohli lug‘ati 5 tomlik)

Ekspressivlik – til ekspressiv vazifalarning turli shakllar bilan namoyon bo‘lishi, namoyon bo‘lgan holati.

Ekspressiya – (lot. *expressio* – ifoda). Nutqning ta’sirchanlik xususiyati. Bu xususiyat leksik-grammatik va boshqa vositalar yordamida yuzaga keladi. (Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. A.Xojiyev)

Ma’lumki, frazeologik birliklar fikrni keng, obrazli, o‘tkir ma’noli qilib ifodalash xususiyati bilan boshqa til birliklaridan farqlanadi. Shu bilan birga, ularda qo‘shimcha ma’nolar va ma’no qirralarining kuchli ifodalanishi frazeologizmlarning xarakterli tomonlari hisoblanadi. Frazeologizmlar

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008-yil, 5-jild, 57-bet.

³ N.Hotamov, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –T: “O‘qituvchi” 1983-yil, 370-371-betlar.

⁴ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005 -yil, 10-jild, 268-bet.

ekspressivlikni oshirishga xizmat qiladigan eng muhim til birliklaridan biri bo'lganligi uchun ham biz dastlabki ishni esse janrida frazeologizmlarning lingvostilistik tadqiqidan boshladik va tadqiqot obyekti sifatida “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Samarqand”, “Turkiston”, “Zarafshon” va “Ma’rifat” gazetalarida chop etilgan esselarni oldik.

Bugungi kunga qadar 100dan ortiq esselarni to‘plashga harakat qildik va bu esselarni frazeologizmlar jihatdan tahlil qildik. Xususan, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2013-yil 8-mart sonida Halima Axmedovaning “Bobomning bog‘i” nomli essesi chop etilgan. Bu esseda bir nechta o‘rinlarda frazeologizmlarning o‘rinli qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ushbu esseda “Bolalik sodda va beozor kapalakning qanot qoqishiga o‘xshaydi. Rangin gullar oralab zavqlanib uchadi-da, *ko‘z ochib yumguncha* yo‘qotasan”, ya’ni “*ko‘z ochib yumguncha*” iborasi qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu ibora “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Juda tez, bir lahzada” deb izohlangan bo‘lsa, Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da esa “Juda qisqa muddatda, tezda. Sinonimi: “hash-pash deguncha” (147)” deya izohlanadi. Bizningcha ham ushbu frazeologizm umrning, hayotning va umuman bolalikning bir onda go‘yo oqar suvdek tez o‘tib ketishi, bir lahaza, tez fursatlarda tarzida izohlanadi. Muallif ham o‘z essesinde ta’sirchanlikni oshirish maqsadida ushbu iboradan o‘rinli foydalangan.

Bundan tashqari “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2013-yil 29-mart sonida Sanjar Tursunovning “Qaytmas yillar bahori” nomli essesi chop etilgan bo‘lib, ushbu esseda ham ta’sirchanlikni oshirivchi frazeologizmlardan bir nechta o‘rinlarda foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “Men yetti-sakkiz yoshli, *yerga ursa ko‘kka sapchiydigan*, o‘yindan boshqa o‘yi bo‘lmagan bolakay edim” gapida “*yerga ursa ko‘kka sapchiydigan*” iborasi qo‘llanilgan bo‘lib, bu ibora “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da “O‘taketgan sho‘x, o‘taketgan betinim (81)” tarzida izohlanadi. Bizningcha bu ibora “Juda sho‘x, o‘jar aytganni qilmaydigan” degan ma’nolarni anglatadi. Muallif ushbu iboradan esse qahramonining bolalik yillarini tasvirlashda, uning xarakterini ochib berishda va ta’sirchanlikni oshirish maqsadida foydalangan.

Ana shu essening yana bir o‘rnida quyidagi iboradan foydalanilgan: “Biz kimmizu nimalarga qodirmiz, davrimiz o‘zimizga qanday yarashig‘liq bo‘lgani, dilimiz qanday ravshan, *qo‘limiz qanday uzun*, ma’naviyatimiz qanday fuzun bo‘lganidan tug‘ilajak farzandlarimizga, ularning farzandlariga, uzoq avlodlarimizga biz aytajak so‘z bu, biz qoldirajak rizq-ro‘z bu!”. “*Dilimiz qanday ravshan, qo‘limiz qanday uzun*” iborasi O‘TILda “Imkoniyatga ega, imkoniyati katta” tarzida izohlangan bo‘lsa, Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek

tilining izohli frazeologik lug‘ati”da esa “Ortiq darajada imkoniyatga ega (302)” degan ma’noda berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Muallif esa ushbu iboradan mustaqillik sharofati tufayli erishilgan tinch va totuv hayotimizni, erkin va farovon jamiyatimizning bugungi qiyofasini, biz yoshlarga berilgan keng imkoniyatlarni tasvirlashda juda chiroyli tarzda foydalangan. Darhaqiqat, bugun o‘zbek xalqi tom ma’noda qo‘lini qayerga uzatsa yetadi, ya’ni barcha imkoniyat eshiklari biz uchun keng ochiq.

Xullas, ushbu frazeologik birliklarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Biz bu ishni magistrlik dissertatsiyamizning keyingi tadqiqotlarida davom ettirib, atroflicha yoritib berishga harakat qilamiz. Zero, esse janrining lingvostilistik tadqiqi bo‘yicha yechilishi lozim bo‘lgan masalar talaygina.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I. Mamlakatimizda demokratik isloqotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Oliy Majlis Senati va qonunchilik palatasi qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqi. // "Xalq so‘zi" gazetasi. 2010 yil 14 noyabr'.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008-yil, 5-jild, 57-bet.
3. N.Hotamov, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –T: “O‘qituvchi” 1983-yil, 370-371-betlar.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005-yil, 10-jild, 268-bet.